

JISMONIY SHAXSLARGA “ONLAYN-MIKROQARZ” AJRATISH OFERTA SHARTNOMASI

Mazkur shartnomaga ko`ra “Ipoteka-bank” ATIB (bundan buyon shartnoma matnida “Bank” deb yuritiladi) tomonidan, “Ipoteka-Retail” mobil ilovasining foydalanuvchisi bo`lgan jismoniy shaxslarga (bundan buyon shartnoma matnida “Mijoz” deb yuritiladi) “Onlayn-mikroqarz” ajratish to`g`risidagi oferta shartnomasini (bundan buyon shartnoma matnida “Shartnoma” deb yuritiladi) tuzishni O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369-moddasiga muvofiq taklif qiladi.

Mijoz ushbu shartnomada ko`rsatilgan harakatlarni amalga oshirishi, Mijozning mazkur shartnomada ko`rsatilgan tartibda va hajmda Bank bilan shartnomani tuzishga roziligini bildiradi.

Mazkur oferta Bankning “Ipoteka-Retail” mobil ilovasida joylashtiriladi.

I. ASOSIY TUSHUNCHALAR

- 1.1. Onlayn-mikroqarz (keyingi o`rinlarda mikroqarz)** – O`zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalash to`g`risida”gi Qonuniga asosan muddatlilik, to`lovililik, qaytarishlilik va ta`minlanganlik shartlari asosida, milliy valyutada, O`zbekiston Respublikasi budget tashkilotida ishlovchi jismoniy shaxslarga “Ipoteka-bank” ATIBning mobil ilovasi orqali, ushbu shartnomada belgilangan shartlar asosida mikroqarzajratilishi tushuniladi;
- 1.2. Bank kartasi** – Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslar uchun emissiya qilingan plastik karta;
- 1.3. Mijoz** – Bank mobil ilovasida o`ziga tegishli bo`lgan ish haqi doirasida ochilgan bank kartalarini biriktirgan va “Ipoteka-bank” ATIBning mobil ilovasi orqali mikroqarz xizmatidan foydalanishga ariza bergan jismoniy shaxs;
- 1.4. “Ipoteka-Retail” mobil ilovasi (keyingi o`rinlarda mobil ilova)** – Bank tomonidan ko`rsatiladigan ma`lum xizmatlardan masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi, mobil qurilmalarda (smartfon, planshet va hokazo) ishlash uchun moslashgan dasturiy ta`minot;
- 1.5. Oferta** – Mobil ilova orqali Bank Mijozlariga e`lon qilingan, yetarli darajada aniq bo`lgan va taklifni kiritgan Bank va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifoda etadigan taklif;
- 1.6. Aktsept** – Mijozning mikroqarz bo`yicha Bank ofertasini qabul qilinganligi to`g`risidagi javobi;
- 1.7. Ssuda hisobvarag`i** – Mijozga ajratilgan mikroqarz aks ettiriluvchi Bank tomonidan hisobvaraqlar rejasiga muvofiq ochiladigan alohida shaxsiy hisobvaraq;
- 1.8. Elektron hamyon** – Masofadan turib bank xizmatlarini ko`rsatish tizimi orqali Mijoz foydalanishi mumkin bo`lgan Bankda ochilgan maxsus hisobvaraq;
- 1.9. Kredit arizasi** – Mijozga mikroqarz taqdim qilish ehtimolini baholash maqsadida Masofadan turib mobil ilova orqali Mijoz tomonidan Bankka yuboriladigan va mazkur shartnomada nazarda tutilgan shartlarda so`ralayotgan mikroqarz to`g`risida umumiy axborotni o`z ichiga olgan hujjat;
- 1.10. Masofadan turib bank xizmatlarini ko`rsatish tizimi** – Bank xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatini taqdim qiladigan dasturiy-texnik vositalar, shu jumladan «Ipoteka-Retail» mobil ilovasi.

II. SHARTNOMA PREDMETI

- 2.1. Bank Mijozga Kredit arizasida Mijoz tomonidan ko`rsatilgan summada, biroq Bank tomonidan Mijoz uchun hisoblab chiqilgan ehtimoliy moliyalash summasidan ko`p bo`lmagan miqdorda Mikroqarz beradi, Mijoz esa olingan Mikroqarz summasini Bankka qaytarish hamda mazkur shartnoma shartlarida nazarda tutilgan shartlarga asosan Mikroqarzdan foydalanilganlik uchun foizlarni to`lash majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMANI TUZISH TARTIBI VA JOYI

- 3.1. Mijoz tomonidan shartnomanı aktseptlash Bank mobil ilovasi orqali masofadan turib mikroqarz olish imkonini beruvchi amaliyotlarni bajarish orqali amalga oshiriladi.
- 3.2. Mijoz tomonidan shartnoma aktseptlanib, Mijozning Bank hisob raqamiga mikroqarz miqdori kirim qilingan paytdan boshlab, Bank va Mijoz o'rtasidagi shartnoma tuzilgan hisoblanadi.
- 3.3. Shartnoma Mijozga mikroqarz ajratgan Bank filiali joylashgan hududda tuzilgan hisoblanadi.

IV. MIKROQARZ AJRATISH TARTIBI VA SHARTLARI

- 4.1. Mikroqarz shartnoma shartlariga binoan, Mijoz tomonidan mobil ilova orqali elektron ravishda rasmiylashtirilgan arizada ko'rsatilgan miqdorda va muddatga ajratiladi. Bunda, Mijoz mikroqarz olish uchun Bank mobil ilovasida onlayn kredit olish tugmasi orqali mazkur shartnoma bilan tanishib chiqib, Kredit arizasini berish orqali murojaat qilishi kerak.
- 4.2. Kredit arizasi ko'rib chiqilganidan so'ng Bank Mijozga mobil ilovada Bank tomonidan tasdiqlangan mazkur shartnoma shartlarida moliyalash summasini ma'lum qiladi yoki Mijozning kreditni to'lash qobiliyatini yetarlicha emasligi sababli Mikroqarzni taqdim qilish imkoniyati yo'qligi to'g'risida xabar beradi.
- 4.3. Mazkur shartnoma shartlarini aktseptlash orqali Mijoz o'z roziliginini bildiradi va Bankka Mikroqarzni ko'rib chiqish, berish va so'ndirish jarayonlari bilan bog'liq maqsadlarda O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni talablariga asosan rasmiy manbalardan kerakli hajmda Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini talab qilish, olish, ishslash va boshqa shaxsga uzatish vakolatini beradi.
- 4.4. Bank tomonidan tasdiqlangan Mijozni moliyalash summasi Mijozning kreditni to'lash qobiliyatini baholash orqali Bankda mavjud Mijoz to'g'risidagi axborot asosida belgilanadi. Mijoz Bank tomonidan taklif qilingan ehtimoliy moliyalash summasidan yuqori bo'lмагan summada, mazkur shartnoma shartlarida so'ndirish oy kunlari qayd etilgan holda Mikroqarz olishga yoki Mikroqarz olishni rad qilishga haqli.
- 4.5. Bank tomonidan Mijozga ajratilgan mikroqarzning hisobi Mijozga ochilgan ssuda hisobvarag'ida yuritiladi.
- 4.6. Bank tomonidan mikroqarz quyidagicha ajratiladi:
 - mobil ilovaga ish haqi kartasi biriktirilgandan so'ng;
 - oferta shartnomasi tasdiqlangandan so'ng;
 - keyingi ish kundan kechiktirmagan holda elektron hamyonga tushiriladi.
- 4.7. Mazkur shartnoma shartlariga asosan Mikroqarz olishni istagan Mijozlar javob berishi kerak bo'lgan muayyan talablar, mikroqarz summasining miqdori, muddatlari, boshqa to'lovlar, shuningdek boshqa shartlar Mijozlarga umumiyl foydalanish joylarida (Internet tarmog'ida Bankning quyidagi manzil bo'yicha rasmiy saytida: www.ipotekabank.uz Masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi servislarida, Bankning Aloqa-markazi orqali, shuningdek ommaviy axborot vositalarida va h.k.) tegishli axborotni joylashtirish orqali ma'lum qilinadi.

V. MIKROQARZ QAYTARISH TARTIBI

- 5.1. Mikroqarz to'lovlar shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan mikroqarz to'lov qaytarish jadvalida belgilangan sanada va miqdorda Bank kartasi, elektron hamyon hisobvarag'ida mayjud mablag'lar hisobidan memorial order orqali Bank tomonidan mikroqarz va mikroqarz bo'yicha hisoblangan foiz, neustoyka va hokazo to'lovlar hisobi yuritilayotgan hisobvaraqlarga o'tkazib boriladi.
- 5.2. Mikroqarz bo'yicha foizlar yiliga 365 kun va har oyning mavjud bo'lgan kunlar soni bo'yicha, mikroqarz to'liq so'ndirilgunga qadar hisoblanadi.
- 5.3. To'lov jadvali Mijozning arizasi asosida mobil ilovaga dasturlangan skoring yordamida inson omili ishtirosiz avtomatik tarzda shakllanadi hamda Mijozning foydalanayotgan mobil ilova interfeysida to'lov jadvali ko'ringanidan so'ng "kreditni rasmiylashtirish" tugmasi bosilgach, to'lov jadvali Bank va Mijoz o'rtasida kelishilgan hisoblanadi.

5.4. Mijozning Bank kartasi hisobvarag'iga, to'lov jadvali bo'yicha qarzdorlik to'liq qaytarilmaguncha, kelib tushayotgan barcha mablag'lar mikroqarz qarzdorligini qoplashga yo'naltirilib boriladi.

Mijozning so'roviga (topshirig'iga) asosan, mijozdan kreditning joriy to'lovi uchun kreditni (qarzni) qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, u holda bank kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini mijoz kreditining (qarzning) asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirilishi mumkin.

5.5. Agar amalga oshirilgan to'lov summasi Mijozga ajratilgan mikroqarz bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmasa, Mijozning mikroqarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

- 1) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlar mutanosib ravishda;
- 2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- 3) neustoyka (jarima, penya);
- 4) bankning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari (pochta xarajatlari, davlat boji va boshqalar).

5.6. Bank karta hisobvarag'ida mikroqarzni to'lash uchun mablag'lar yetarli bo'lмаганда, Mijoz quyidagi boshqa usullardan foydalanib ham mikroqarzni qoplashi mumkin:

- Bank kassasiga naqd pul kirim qilish orqali;
- omonat hisobvaraqlaridan mablag'lar o'tkazish yo'li bilan;
- boshqa Bank kartalaridan mablag'lar o'tkazish yo'li bilan;
- boshqa qonunchilikda nazarda tutilgan to'lov shakllari bilan.

5.7. Agar mikroqarz to'lovining sanasi Bank ish kuni hisoblanmasa, to'lov keyingi Bank ish kuniga ko'chiriladi.

5.8. Mikroqarz qarzdorligi sud qarorlarini ijro qilish tartibida undirilgan taqdirda, Bankning tranzit hisobvaraqlariga kelib tushgan mablag'lar tegishli sud qarori bilan belgilab berilgan summalarini qoplashga yo'naltiriladi.

5.9. Mijoz tomonidan to'lov jadvali bo'yicha to'lovlarini qaytarish surunkasiga ikki marotaba yoki bir kalendar yili davomida uch marotaba buzilgan taqdirda Bank mikroqarz qarzdorligini muddatdan oldin undirish choralari ko'radi.

VI. ONLAYN-MIKROQARZ TA'MINOTI BO'YICHA TALABLAR

6.1. Ushbu shartnoma asosida ajratiladigan Onlayn-mikroqarz jismoniy shaxs (Mijoz)ning ish haqisi bilan ta'minlanadi.

VII. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

7.1.1. Shartnomaga muvofiq majburiyatlarning Mijoz tomonidan bajarilishini ta'minlash sharti asosida yoki shunday shartsiz mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish;

7.1.2. Buyurtma beruvchiga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishni assoslantirilgan holda rad etish;

7.1.3. Mikroqarz ajratish va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni buyurtma beruvchidan so'rab olish;

7.1.4. To'lov o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, majburiyatlarning Mijoz tomonidan muddatidan ilgari bajarilishini talab qilish.

7.1.5. Mijozning qarzdorligi bo'yicha uning turmush o'rtog'i va yaqin qarindoshlariga ma'lumot berish;

7.1.6. Mijoz tomonidan ushbu shartnoma shartlarining bajarilishi va mikroqarz shartnomasi shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni "Kredit axboroti tahliliy markazi" kredit byurosi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Kredit Axboroti Davlat Rejestriga yuborish;

7.1.7. Mijozning ish haqi to'g'risida ma'lumotlarini tegishli barcha tizimlardan olish;

7.1.8. Bank ajratilgan mikroqarzning muddati kelgan qismini, shu jumladan foiz va neustoykalarni Mijozning Banklarda ochilgan barcha plastik karta hisobvaraqlaridan aktseptsiz tartibda yechib

olish. Bunday bank operatsiyasi Mijozni oldindan ogohlantirishsiz, to`lov muddati kelgan sanada va undan keyingi har qanday sanada amalga oshirilishi mumkin.

7.1.9. Mijoz bilan bo`lgan telefon suhbatlarini yozib olish va saqlash;

7.1.10. Mijoz bilan muloqot qilish uchun har qanday aloqa bog`lash usullaridan, shu jumladan elektron(raqamli) aloqa vositalaridan yoki qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanish;

7.1.11 Bankka zarur bo`lgan ixtiyoriy shaklda barcha tizimlardan Mijozning ma`lumotlarini qabul qilish va tahlil qilish;

7.1.12 Bank qonun hujjatlari yoki shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo`lishi mumkin. Mijoz tomonidan oferta shartnomasiga rozilik berilishi, Bankning yuqoridagi huquqlarga ega bo`lishiga asos bo`ladi.

7.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

7.2.1. Mikromoliyaviy xizmatlar ko`rsatish qoidalari bilan tanishib chiqish;

7.2.2. O`z huquq va majburiyatlar to`g`risida, shu jumladan mikromoliyaviy xizmat ko`rsatish bilan bog`liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to`liq axborot olish;

7.2.3. Shartnoma shartlarining shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda bajarilishini talab qilish;

7.2.4. Mikroqarzni muddatidan oldin hech qanday jarima sanksiyalarsiz qaytirish;

7.2.5. Mijoz qonun hujjatlari yoki shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo`lishi mumkin.

7.3. Bankning majburiyatları:

7.3.1. Mijozning huquq va majburiyatlar to`g`risida, shu jumladan mikromoliyaviy xizmat ko`rsatish bilan bog`liq barcha xarajatlar haqida Mijozga ishonchli hamda to`liq axborotni ma`lum qilishi;

7.3.2. Shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda mikromoliyaviy xizmatlar ko`rsatishi;

7.3.3. Bank zimmasiga qonun hujjatlariga yoki shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

7.4. Mijozning majburiyatları:

7.4.1. Mikromoliyaviy xizmatdan foydalanishdan oldin ushbu oferta shartnomasi shartlarini bilan tanishib chiqish;

7.4.2. Mijoz, mikroqarz ajratilishida va boshqa hollarda mobil ilova texnik nosozligi sababli Mijozning bank kartasi, elektron hamyonni yoki boshqa hisobraqamlariga ortiqcha ajratilgan mablag`lar to`g`risida Bankni zudlik bilan ogohlantirishi va ushbu mablag`larni Bankka qaytarishi;

7.4.3. Majburiyatlarni shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda bajarish, mikroqarz va unga hisoblangan foizlarni mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda va miqdorda to`lab borish;

7.4.4. Mikroqarz ajratish uchun Bankka skoring tahlili asosida aniqlangan ish haqini (va unga tenglashtirilgan boshqa daromadlari) bank kartasiga tushishini ta`minlash (ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa daromadlarini boshqacha tarzda olmaslik);

7.4.5. SMS xabar yuborish uchun taqdim etilgan mobil telefon raqami o`zgarganda, ushbu o`zgarish haqida Bankni xabardor qilish va yangi mobil telefon raqamni Bankka taqdim etish;

7.4.6. Yashash joyi, ish joyi, familiyasi yoki ismidagi va ushbu shartnoma bo`yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta`sir ko`rsatishga qodir bo`lgan boshqa holatlardagi o`zgarishlar to`g`risida Bankni 5 (besh) bank kuni mobaynida xabardor qilish;

7.4.7. Mijoz qonun hujjatlari yoki shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

VIII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

8.1. Tomonlarning ushbu shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi mazkur shartnoma shartlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

8.2. Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda, muddati o'tgan kredit qarzdorligi miqdoriga qarz oluvchi Bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foizning 1,5 baravari miqdorida foiz to'laydi.

8.3. Mikroqarz bo'yicha hisoblangan foizlarni belgilangan muddatlarda to'lamaganligi uchun qarz oluvchi Bankka kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lovning 0,1 foizi mikdorida, ammo kechiktirilgan to'lovning 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

8.4. Mazkur shartnoma shartlarining lozim darajada bajarilmaganligi natijasida neustoykalarning undirilishi (to'lanishi) tomonlarni o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

IX. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

9.1. Tomonlar ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan kelishmovchilik va nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qiladilar.

9.2. Agarda ko'rsatib o'tilgan kelishmovchilik va nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan, Bankning filiali joylashgan hududdagi fuqarolik sudida hal qilinadi.

X. FORS-MAJOR

10.1. Taraflar ushbu shartnoma imzolangandan keyin majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, taraflar oldindan ko'ra olishmagan, tegishli choralar bilan bartaraf etishi mumkin bo'limgan favqulodda tusdagi hodisalar natijasida vujudga kelgan, yengib bo'lmaydigan kuch holatlarining oqibatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar) hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi.

10.2. Yengib bo'lmaydigan kuch holatlariga asoslanadigan Taraf boshqa Tarafni bunday holatlar boshlanganligi to'g'risida yozma ravishda zudlik bilan xabardor qilishi shart va shu bilan birga istalgan tarafning talabiga ko'ra holatlarning boshlanishi faktini tasdiqlovchi, tegishli tashkilot tomonidan berilgan hujjat taqdim etilishi kerak.

XI. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

11.1. Ushbu shartnoma Mijoz tomonidan Bank mobil ilovasi orqali tasdiqlangan kunidan boshlab tuzilgan hisoblanadi va yuridik kuchga kiradi.

11.2. Taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

11.3. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning veb-sayti va Bank filial stendlari orqali Mijozlarga ma'lum qilinadi.

11.4. Shartnoma istalgan paytda Mijozning tashabbusi bo'yicha bekor qilinishi mumkin, bunda Bankka Shartnomanini bekor qilish uchun ariza taqdim qilinganida Bank bilan yakuniy hisob-kitob qilinishi va Qarzdarlik to'liq so'ndirilishi shart.

11.5. Mijoz Bankning yozma rozilgisiz mazkur shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o'tkazishga haqli emas.

11.6. Shartnomaning bekor qilinishi tomonlarni shartnoma kuchida bo'lgan davrda vujudga kelgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

12.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida korruption xarakatlarni to'liq ta'qilash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddashtirish., raqobat va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiya qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo'lsa) talablariga amal qiladilar.

12.2. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida na o'zlari, na ijroiya organi, na ularning masabdor shaxlari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korruption to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korruption to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmashliklarini kafolatlaydi.

12.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli tomon boshqa tomonni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Tomon yozma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishchonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart.

Yozma xabarnomalar jismoniy va yuridik shaxslar uchun mo'ljallangan "Ipoteka bank" ATIB rasmiy veb-saytidagi korrupsiya qarshi kurashish aloqa kanallari orqali amalga oshiriladi.

12.4. Ushbu bo'lim qoidalari taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa tomon shartnomani bir taraflama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

12.5. Mazkur shartnomani korrupsiya qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan tomon, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash tomonlar tomonidan yozma ravishda tasdiqlanagan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

XIII. YAKUNIY QOIDALAR

13.1. Mazkur shartnoma bilan tartibga solinmagan barcha masalalar amaldagi qonunchilik asosida hal etiladi.

13.2. Hech bir taraf ushbu shartnomaning qog'oz ko'rinishini saqlashga va imzolashga majbur emas, Bank tomonidan bank mobil ilovasiga joylashtirilgan ushbu shartnomaning 3.1.-bandida ko'rsatilgan harakatlar Mijoz tomonidan bajarilgan paytdagi tahriri qonuniy kuchga ega bo'ladi.

XIV. BANK REKVIZITLARI

Nomi: «Ipoteka-bank» ATIB Bosh ofisi

Manzil: Toshkent shahri, Shahrисабз ko'chasi, 30

STIR: 202858483

MFO: 00937

Litsenziya: 2021 yil 25 dekabrdagi 74-sonli

Sayt: www.ipotekabank.uz